

BUGUNGI KUNDA BOLALARNING SOG'LOM RUHIY MUHITDA TARBIYASH USULLARI

Qarshiyeva Marhamat Egamovna

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 32-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Bugungi jadal rivojlanuvchi davr talablariga muvofiq, o'zgaruvchan zamonaviy maktab ta'limi oldida ta'lim mazmuni va tuzilmasiga yangicha yondashuv zarurati mavjudligi sababli ko'plab dolzarb vazifalar yuzaga keldi. Endilikda zamonaviy o'quvchi – o'qitishda an'anaviy ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanib emas, balki ularga mustaqil bilim olish hamda egallagan bilimlarini takomillashtirishga intilish malakalarini shakllantirishi hamda o'rgatishi zarur. Ushbu maqolada pedagogikada bolalarning sog'lom ruhiy muhitda tarbiyash usullari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, nutq madaniyati, sog'lom muhit, innovatsiya, pedagogik mahorat, tarbiya, xarakter.

KIRISH

Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, vaholanki, uz shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o'tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko'paygan bo'ladi. Ya'ni u o'z obro'sini endi nafaqat oila a'zolari o'rtasida, aksincha, jamiyat o'rtasida oila obro'sini o'z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi.

Bizga ma'lumki, har qanday odam boshqa odamdan o'zining individual-psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan ma'lum bir odamga xos bo'lgan xislatlar nazarda tutiladi. Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida nomoyon bo'ladigan, tipik sharoitlarida ko'rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixik xususiyat yig'indisi tushuniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ruhiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug'dirmaydi. Chunki maktabda o'qituvchi hamma bolalarga bir ko'z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoygga qarash qilmasdan, maktab uning o'zi uchun kerak bo'lgan burch, sifatida qaragan ma'qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o'rganib boradi.

O‘z burchini sezgan shaxsda esa o‘z shaxsiga hurmat tuyg‘usi tobora ortib yaxshi shakllanadi. Hammamizga ma’lum tushuncha, ya’ni o‘zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni hurmat qilishni bilmaydi. Bu o‘rinda tarbiyaning, maktab va oila tarbiyasining bola shaxsiyatiga bir yo‘nalishda mutanosib olib borilishi jiddiy e‘tiborga molik.

Maktab bolani kengroq jamiyatga kirishiga yordam beradi. Maktabda bola o‘zining individual qobiliyati va qiziqishiga qarab kengroq bilimga ega bo‘la boshlaydi. Maktabda bolaning olgan ta’lim tarbiyasiga qarab dunyoqarashi kengaya boshlaydi va shu bilan birga uning ochilmagan qirralari ya’ni xar xil soxaga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Qiziqish qobiliyat bolaning individual hususiyatlari qatoriga kiradi. Qiziqish va qobiliyattan tashqari, temperament va xarakter ham individual hususiyatlar qatoriga kiradi.

NATIJARLAR

Har bir bolaning o‘ziga yarasha individual hususiyatlari mavjud bo‘ladi. Individual xususiyatlarga to‘xtalib o‘tamiz;

Qobiliyat—insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat anglashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

Har qanday qobiliyat turi shaxsiga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya’ni insonni fahmlash, ob‘ektdan u yoki bu alomatlarni ko‘ra bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir.

Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko‘pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko‘pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo‘ladi. Zehn nishonalari deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarning mohiyatini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir.

Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma’lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalari aniklash, mutaxassis rahbarligida

uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi.

МУХОКАМА

Xarakter – (yunoncha tamg'a, nishon, xislat) – xarakter; ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib, shaxsning atrofidagi voqealikka va o'z - o'ziga bo'lgan munosabatda ifodalanadigan, uning muayyan sharoitlardagi xatti - harakatlarni belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisidir.

Xarakter termini fanga qadimgi yunon olim va faylasufi Teofrast tomonidan kiritilgan. Xarakter tug'ma o'zgaraydigan xususiyat emas. U kishining hayot sharoitlarga bog'liq holda tarkib topib, o'zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir: maxsus sharoitda, maxsus ta'lim-tarbiya ta'sirida salbiy xarakter xislatlarini bartaraf qilish, ijobiy xarakter xislatlarini tarbiyalash mumkin.

Yendi individual hususiyatlarni ta'lim jarayoniga bog'laymiz. Bolalarni ta'limga o'rgatish avvalo uning qiziqish va qobiliyatidan kelib chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu masalaga pedagoglar alohida ahamiyat berishlari kerak. Har bir bola o'z individual hususiyatiga qarab o'zi qiziqqan va qobiliyati bo'lgan sohani tanlaydi. Qaysidir bola aniq fanga qiziqsa qaysidir bola gumanitar sohaga qiziqadi. Shuning uchun aniq fanni bilmagan bolani biz qobiliyatsiz bola deb ayta olmaymiz. Biz ular qaysi sohaga qiziqishi va qobiliyati mavjudligini aniqlab uni o'sha soxaga yo'naltirishimiz darkor.

Har bir inson yoshligidanoq kamchiligu yutuqlari, o'z imkoniyatlari haqida oz bo'lsa-da tasavvurga ega bo'la boshlaydi. Yoshligidanoq bolalar fe'l-atvori haqida oldin ota-onalari, keyin esa atrofdagilari o'z munosabatini bildira boshlaydi. Tashqi ta'sir natijasi o'laroq, har bir insonda o'ziga-o'zi baho berish qobiliyati shakillana boshlaydi. Qaysidir bola o'ziga juda yuqori baho bersa, yana qaysidir bola o'zi haqida salbiy fikrga ega bo'ladi. O'ziga yuqori baho bergan bolalar ham past baho beradigan bolalar ham ta'lim dargohida bilim olishga qiynaladi. Yuqori baho bergan bolalarning qiynalishini sababi shundaki, uning o'zi haqidagi fikri real imkoniyatlaridan ko'ra ilgarilab ketgan bo'ladi. Bunday bolalar atrofdagilaridan norozi bo'lishadi, ularning o'zi haqidagi fikrini ijobiy tomonga o'zgartirgandan so'nggina u bilim olishga qiynalmaydi. Ularning o'zi haqidagi fikrlarini o'zgartirish ham qiyin kichadi. Buning uchun o'zgalarning yutig'ini ko'rib, u bilan o'z imkoniyatlarini taqqoslash, atrofdagilarining unga nisbatan to'g'ri muomila qila olishi muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish darkor.

O'zi haqida salbiy fikrga ega bo'lgan bolalarga ham oson emas. Ularning boshqalar bilan muomilaga kirishlari, yangi tanishlar orttirishlari qiyin kichadi shu

bilan birgalikda ta'lim olishlari ham qiyin kechadi. Ularni doim bir ishni boshlashdan oldin "men to'g'ri yo'l tutyapanmikin" kabi shubhali savollar qiynaydi. Bunday shubha gumonlardan qutilish uchun bolalarga avvalambor o'zlariga chettan nazar solish kerakligini tushuntirish kerak. Ularga hech kimdan kam emasligini shu bilan barobarda boshqalardan ustun jihati mavjudligini tushuntirish va shu jihatni his qila bilishni o'rgatish kerak. Ana shundagina bola hayotda o'z o'rnini topa oladi.

Maktab, akademik litsey, kasb hunar koliji o'quvchilarining qaysi sohaga qiziqish va qobilyati mavjudligini aniqlab ularni shu sohaga yo'naltirish uchun o'qituvchilar quydagi inovatsion metodlardan foydalanishsa yuqori natijalarga erishadilar;

-“qobilyatni aniqlash testi” bu test o'quvchilarning hayotda o'z yo'nalishlarini to'g'ri tanlashga yordam berishi bilan birgalikda, o'qituvchilarga o'quvchilarning qobilyatini aniqlab qiziqishlariga qarab dars samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

-“ijodiy qobilyatlarni aniqlash so'rovnomasi” mazkur so'rovnoma shaxsda ijodiy faollik bilan bog'liq bo'lgan 4ta asosiy xususiyat- qiziquvchanlik, yaxshi rivojlangan xayol, murakkab hodisalarni yechishga intiluvchanlik, tavakalchilikka moyilik darajasini aniqlashga imkon beradi.

-“Gottshald shakillari” mazkur metodika shaxsning bilish faoliyatida ikki kognetiv uslub maydonga tobe va maydondan mustaqil uslubning qaysi biri ustunligini aniqlash uchun qo'laniladi. Bunda maydonga tobelik odamning olamni bilish jarayonida tashqi chalg'ituvchi omillar ta'siriga kuchli berilishini, maydondan mustaqil uslub esa bunday ta'sirdan yetarlicha holi ekanligini anglatadi.

XULOSA

Bolalarning qobilyatiga qarab ularni o'z xayotida o'zi qiziqqan soha mutaxasislari bo'lishlari uchun ularga to'g'ri yo'nalish berish kerak. Ba'zi bir bolalar judayam qobilyatli bo'lishadi leki judayam qaysar bo'lishadi ular bilan ko'proq shug'ullanish kerak. Ana shundagina ular ham o'z hayotida o'z o'rniga ega bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khankeldiev S. K., Uraimov S. R. EXPERIMENTAL SUBSTANTIATION OF THE METHODOLOGY FOR CONDUCTING PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM, TAKING INTO ACCOUNT REGIONAL FACTORS //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.
2. Allamuratov S. I., Uraimov S. R. MOTOR TRAINING OF STUDENT YOUTH IN THE PROCESS OF TRAINING IN SPECIALIZED MILITARY-TECHNICAL LYCEUMS IN CONDITIONS OF HYPERTHERMIA //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.
3. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
4. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT